



TEXNOLOGIYANING INSON OMILIGA TA'SIRI

Karomatova Sevinch Nuraliyevna

O'zbekiston davlat Jahon Tillari Universiteti

Ingliz filologiyasi 1-kurs talabasi

karomatovasevinch499@gmail.com

Bannopova Z.X.

Ilmiy rahbar:

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17533638>

Annotatsiya: Bu maqola kundan kunga rivojlanib ketayotgan, har bir sohaga kirib, o'z ta'sirini o'tkazayotgan, chuqur iz qoldira olayotgan texnologiyalarning inson omiliga ta'sirini o'rganadi. Ushbu maqolada texnologiyalarning insonga ijobiy ta'sir ko'rsatyaptimi yoki salbiy, u insonlarga qanday qulayliklar-u yoki qanday muammolar yaratayotganligi ham yoritiladi. Shuningdek, ulardan oqilona foydalanish, to'g'ri maqsadda foydalanish to'g'risida tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: texnologiya, inson omili, ijobiy-salbiy ta'sir.

Kirish: XXI asrda texnologiya kundan kunga jadal tezlikda rivojlanib boryapti. Chunki insonlarda texnologiyaga bo'lgan ehtiyoj ham juda kuchli. "Zamonaviy axborot tizimlari insonni boshqarish va ularga ta'sir ko'rsatish vositasiga aylangan" ¹ Texnologiyalar barcha sohalarda keng qo'llanilmoqda, masalan, tibbiyot, ta'lim, iqtisod, biznes, ishlab chiqarish, sanoat va boshqalar. Ular insonlarga juda katta yengilliklar, qulayliklar keltirmoqda. Insonlar uchun og'ir bo'lgan ishlarni ham texnologiyalar yordamida hech qanday qiyinchiliklarsiz amalga oshirilyapti. Bu holat inson hayotini yengillashtirishga olib keladi. Shu texnologiyalar yordamida insonning o'rtacha umr ko'rish davomiyligi oshgan. Bunga tibbiyotning rivojlanganligi katta foyda keltirgan, tibbiyotning rivoj topishida esa texnologiyalarning hissasi katta. Demak, hammasi bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Ammo uning ko'pgina foydallari bo'lishiga qaramasdan insoniyat uchun salbiy jihatlari ham yo'q emas. Texnologiyalar insonning jamiyatdagi o'rnining yo'qolishiga, insonlarning ish o'rinlari qisqarishiga, sog'lig'i, hattoki psixologiyasiga qattiq ta'sir ko'rsata oladi. Misol uchun hozirgi kunda virtual muloqot juda kuchaygan. Ijtimoiy tarmoq insonlarni bir-biri bilan bog'laydi. Ular onlayn tarzda bir-birlarini ko'rishlari va suhbat qilishlari mumkin. Bu juda yaxshi imkoniyat: uzoqni yaqin qiladi. Ammo insonni jamiyatdan uzilib qolishiga ko'makchi bo'ladi. Bu virtual qaramlik ham deyiladi. Ba'zi insonlar borki, atrofidagi odamlar bilan muloqot qilgisi kelmaydi, faqatgina internetga bog'lanib qolgan. Ya'ni internet va ijtimoiy tarmoqlarga qaramdirlar. Texnologiya, internet, ijtimoiy tarmoq bunday odamlar hayotining ajralmas qismiga aylangan. "Texnologiyalar nafaqat nima qilayotganimizni, balki qanday o'ylashimizni ham o'zgartiradi".² Ular o'zlarini texnologiyalarsiz tasavvur eta olishmaydi. Hattoki ularsiz stressga yoki boshqa jiddiy kasalliklarga yoki ruhiy hastaliklarga chalinib qolishi ham hech gap emas. Bu holat ko'pincha yoshlar o'rtasida uchraydi. Ular telefonga yoki shunga o'xshash qurilmalarga qaram bo'lib qolishadi. Bundan tashqari, axborotning ko'pligi ham inson salomatligiga salbiy ta'sir o'tkazadi. Hatto ba'zida inson miyasi ma'lumotlarni qabul qilishga qiynaladi. Natijada insonda stress hosil bo'ladi.

Hozirgi paytda butun olam texnologiya ta'sirida payti biz undan qochishimiz maqsadga muvofiq emas, chunki bizning shaxsiy rivojlanishimiz, o'sishimiz uchun ham texnologiyalar

zarurdir. Biz bu texnologiyalardan oqilona foydalanishimiz kerak. Agar biz ulardan to'g'ri foydalansak, me'yor bilan ishlasak, u bizga ko'p zarar keltirmaydi. O'zimizni unga bog'lab qo'ymasligimiz, texnologiyalardan foydalanayotganda vaqtni boshqarishimiz kerak, ya'ni u bilan muvozanat saqlagan holda foydalanishimiz kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, texnologiyalar insonlar uchun ham foydali, ham zararli bo'lishi mumkin. Bu esa insonning o'ziga bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.“Zamonaviy axborot tizimlari insonni boshqarish va ularga ta'sir ko'rsatish vositasiga aylangan”1_ Dirk Helbing – Yevropalik olim, raqamli inqilob tadqiqotchisi. Dirk Helbing. Societal, Economic, Ethical and Legal Challenges of the Digital Revolution. — ETH Zürich, 2015.
- 2.“Texnologiyalar nafaqat nima qilayotganimizni, balki qanday o'ylashimizni ham o'zgartiradi.”2_Sherri Terkle (Sherry Turkle) – AQShlik psixolog, MIT professori. Sherry Turkle. The Second Self: Computers and the Human Spirit. — MIT Press, 2005-yil.